
MUNOSIB ETIROF

So'nggi yillarda Rishton tumani va Yaponiya mamlakati o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilgan bo'lib, keng miqyosdagi hamkorliklar izchil davom etmoqda. Bunday samimiy munosabatlarda "Noriko - Gakkyu" yapon tili maktabining hissasi beqiyosdir.

Rishton tumanida joylashgan "Rishton-Yaponiya" madaniy iqtisodiy aloqalar markazi bir necha yildan buyon samarali faoliyat olib bormoqda. Bu yerda yapon tilidan saboq olgan ko'plab yoshlar bugungi kunda Yaponiyada tahsil olishmoqda va ishlab kelishmoqda.

Rishton tumanidagi "Noriko - Gakkyu" yapon tili maktabida yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar kishining havasini keltiradi. Bu yerga har yili "Kunchiqar yurt"dan bir nechta ko'ngilli o'qituvchilar kelib rishtonlik yoshlarga yapon tilidan dars berishadi.

Kuni kecha Yaponiyaning O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor elchisi XATORI TAKASHIning Toshkent shahridagi rezidentsiyasida "Rishton-Yaponiya" madaniy iqtisodiy aloqalar markazi G'anisher Nazirovni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirda ko'p yillar davomida Yaponiya va O'zbekiston o'rtasida madaniyat hamda turizm soxasida aloqalarni o'rnatib kelayotgani hamda "Rishton-Yaponiya" madaniy iqtisodiy aloqalar markazi tashkil topganining 25 yil to'lishi munosabati bilan G'anisher Nazirov Yaponiya Tashki ishlar vaziri tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Taqdirlash marosimida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligi xodimlari, elchi XATORI TAKASHI va elchixona xodimlari, Rishton tuman hokimi Bahodirjon Xoliqov, viloyat turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Muzaffar Temirov, Rishtondagi kulollar sulolasi bo'lgan Nazirovlar oila a'zolari, respublikamizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan taniqli madaniyat va san'at vakillari boshqa mehmonlar qatnashdilar.

2024-10-10 08:25:47